

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

TURKIY XALQLAR TARIXIDA LINGVOFOLKLORISTIKANING O'RGANILISHI

Nargiza Ro'zmatova Ollashukur qizi
NDPI tayanch doktoranti

Annotatsiya: Folklor asarlari tilini o'rganish lingvofolkloristika atamasining kirib kelishiga turtki bo'ldi. Bu atama bilan bog'liq jahonda va turkiy tillar dunyosida ko'plab ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda.

Kalit so'zlar: folklor, lingvofolkloristika, turkiy tillar, atama.

Abstract: The study of the language of folklore works prompted the introduction of the term *linguo-folkloristics*. Many scientific researches related to this term are being carried out in the world and in the world of Turkic languages.

Keywords: folklore, *linguo-folkloristics*, Turkic languages, term.

Turkiy xalqlar tarixiga lingvofolkloristikaning kirib kelishi XX asrning 50-60-yillariga to'g'ri keladi. Bu soha bo'yicha dastlabki ilmiy ishlar turkman folklorshunosligida S.Bayliyevning “Sayot va Hamro” dostonining til xususiyatlari [Байлиев С,1965:90], D.Mamedkuliyeving ”Shoxsanam va G'arib” dostonining til xususiyatlari (1965) nomli dissertatsiya [Мамедгулиев Д, 1965:45] ishlari yoqlangan bo'lib, ularda dostonlarning fonetik, leksik va grammatik tomonlari ochib berilgan. Ozarbayjan tilshunosligida bu soha bo'yicha H.Alizoda, M.Toxmasib, X.Korog'lu, K.Valiyev, S.Mexdiyeva, N.Jafarov kabi folklorshunoslar xalq og'zaki ijodi tilning o'ziga xos xususiyatlari haqida ilmiy ish olib borganlar. Ayniqsa, S.Mexdiyevaning “Ozarbayjon yozma dostonlari tili (XVIII asr yozma yodgorligi “Shahriyar” dostoni qo'lyozmasi asosida) nomli monografiyasi, “Xalq og'zaki ijodi yodgorliklarini lingvistik-poetik tadqiq qilish [S.Mexdiyeva, 1991.192]. Folklor abidelerinin lingvopoetik tadqiqi orta asrlarda yuzaga keldi. Azarbaycan xalq dastanlarinin alyazmasi asosida va N.Jafarovning qadimgi turk eposlaridan bo'lgan “Dede Qorqud” va “Koroğlu” dostonlarining poetik xususiyatlariga bag'ishlangan tadqiqotlari diqqatga sazovordir [Cəfərov N.Q, 1997,15). Dostonlarning lingvistik xususiyatlarini ochib berishda qozoq tilshunosligida ham bir qancha ilmiy tadqiqotlar yuzaga keldi. J.Bayzakov eng birinchilardan bo'lib bu ishga kirishdi va “Qozoq qahramonlik dostoni “Alpomish”ning lug'aviy xususiyatlarini” nomli dissertatsiya ishini yoqladi. [Байзаков Ж, 1967:19] Bundan tashqari E.Jubonov tomonidan qozoq lirik dostoni “Qozi Ko'rpeş –Bayan sulu” eposining adabiy–lingvistik xususiyatlari” nomzodlik dissertatsiyasi [Жубанов Е.Х,1967:32], 1989-yil A.J.Muxataeva qozoq liro–eposining lingvistik materialini (“Moddiy madaniyat leksikasi”) yuzasidan nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Qoraqalpoq lingvistikasida folklorshunoslik

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

borasidagi dastlabki izlanishlar sifatida J.Eshbaevning “Naqil-maqallardín kórkem obrazlılıđı”, D.S.Nasırovning “Qaraqalpaq qaharmanlıq dástanlarında áskeriy atlanıs hám urıslardı bayanlawda qollanılátuđın terminler“ [Вестник, 1973.72] maqolalari hisoblanadi. Qoraqalpoq xalq og‘zaki ijodi tiliga bag‘ishlangan eng birinchi monografiya filologiya fanlari nomzodi Orazaq Bekbawlov tomonidan yozilgan bo‘lib, “Qaharmanlıq epostín arab- parsı leksikası hám onıń tariyxıy-lingvistikalıqxarakteristikası“ deb nomlanadi. [Бекбаўлов, Қарақалпақстан, 1979]. Folklor namunalari va ularning til xususiyatlarini chuqurroq o‘rganishga bo‘lgan e‘tibor mustaqillik davrida yanada rivojlandi. Bunda filologiya fanlari doktori, professor Shamshetdin Abdinazimovning xizmatlari beqiyosdir. 1992-yil Sh. Abdinazimov tomonidan “Qirq qiz” dostonining leksikasi” mavzusida nomzodlik ishi himoya qilindi. Ilmiy ishda qoraqalpoq folklorshunosligida birinchi marotaba “lingvofolkloristika” atamasi qo‘llandi. Bundan tashqari ustoz tarafidan bu sohaga oid ko‘plab maqolalar, 2015-yil “Lingvofolkloristika” nomli o‘quv qo‘llanmasi [Абдиназимов Ш.Н.2015.174], 2020-yilda esa “Lingvopoetika” o‘quv qo‘llanmalari bosmadan chiqdi. Sh. Abdinazimov hozirgi kunda ham lingvofolkloristika rivojiga o‘zining katta ulushini qo‘shib kelmoqda. O‘zbek tilshunosligiga lingvofolkloristika atamasining kirib kelishi XX asrning 50-60-yillarga to‘g‘ri keladi. Folklor namunalarining hamma ko‘rinishlarini (qo‘shiq, doston, ertak, maqol, matal, askiya, lapar..) aytuvchilar shevasida yozib olinishini boshlab bergan folklorshunos olimlar Hodi Zaripov va T.Mirzayevdir. 1949-yilda Sh.Shoabdurahmonovning “Ravshan” dostoni badiiy tiliga oid nomzodlik dissertatsiyasi [Шоабдурахманов Ш.1949] bu sohadagi ilk ilmiy tadqiqot ishi edi. Unda dostonning leksik, fonetik va sintaktik xususiyatlari ochib berilgan. Bu yo‘nalishda keyinchalik o‘zbek xalq qo‘shiqlari, topishmoqlari, ertaklari, laparlari poetikasiga bag‘ishlangan ko‘plab tadqiqot ishlari yuzaga keldi. Ushbu tadqiqotlarda ham xalq og‘zaki ijodining lingvistik xususiyatlari tahlil etiladi, o‘ziga xos jihatlari aniqlanadi, ammo “lingvofolkloristika” atamasi ostida emas. Lekin bu ushbu ilmiy tadqiqotlar lingvofolkloristika sohasiga tegishli emas degan fikrni keltirib chiqarmaydi. Chunki Sh. Abdinazimov aytganidek: “Onıń tiykarđı lingvistikalıq wazıypası – folklordıń tilin kompleksli úyreniw esaplanadı” O‘zbek tilshunosligida xalq og‘zaki ijodini aynan lingvofolkloristika obykti sifatida e’tirof etgan tadqiqotchilardan M.Yakubbekova xalq qo‘shiqlari tadqiqi misolida O‘zbek tilshunosligida lingvofolkloristika – folklor asarlari tili va uslubini o‘rganish bo‘yicha bir qator ilmiy ishlar qilingan, jumladan, dostonlar Sh.Shoabdurahmonov, R. S.Yo‘ldoshev, S.Tursunov, I.Yormatova, Z.Xolmanova, A.Rahimov, O.Ingyong, G.Jumanazarova; maqollar X.Abdurahmonov, M.Sadriddinova, B.Soatov,

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

B.Jo‘rayeva; topishmoqlar J.Abdullayev, M.Saitboyeva, M.Saparniyozova; qo‘shiqlar R.Anorboyev, F.Hayitova, M.Jumaniyozova, M.Yakubbekovalar tomonidan o‘rganilgan. Folklor asarlari tilini o‘rganishga qiziqish nafaqat jahon miqyosida, balki turkiy tillar dunyosida ham ko‘plab izlanishlarga yo‘l ochmoqda. Bu kabi ilmiy izlanishlarni yanada ko‘paytirish folklor asarlari tilining o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berishda juda katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Байлиев С. Языковые особенности дастана «Саят и Хемра».АКД, 1965;
2. Мамедкулиев Д. «Шасенем и Гариб». АКД, 1965.
3. S.Mexdiyeva. Azərbaycan yazılı dastanlarının dili (XVIII əsr yazılı abidəsi “Şəhriyar” dastanının əlyazması, əsasında) Bakı, “Elm”, 1991.
4. Сəфəров N.Q.”Koroğlu”nun poetikasi: Müəllimlərə kömək, Bakı, 1997.
5. Байзаков Ж.Лексические особенности казахского героического эпоса «Алпамыс», – Автореф.дисс.к.ф.н –Алма–Ата. 1967
6. Жубанов Е.Х. Литературно-лингвистические особенности эпоса «Козы Корпеш Баян сулу» Автореф.дисс.к.ф.н –Алма–Ата. 1967
7. Совет Қарақалпақстаны» газетасы, 1964, 23-август саны.
8. Вестник Каракалпакского филиала АНУзССР. 1973. № 2. -С. 72-77
9. Бекбаўлов О. Қахарманлық эпостың араб-парсы лексикасы ҳәм оның тарийхий-лингвистикалық харектеристикасы. -Нөкис: Қарақалпақстан
10. Абдиназимов Ш.Н. Лингвофольклористика. Оқыў қолланба. - Нөкис: 2015. – 174 б